

RADIOALOQA TERMINLARINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

Muslimjon Nasirov Maxsutali-o'g'li
Qo'qon DPI O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

Malikaxon Meliqo'ziyeva
Qo'qon DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tili radioaloqa sohasida qo'llaniladigan birikma terminlar haqida fikr yuritiladi. Sohaga oid terminlarning komponentlari miqdori bo'yicha turlarga ajratilib o'rganilgan va har bir tur soha terminlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Birikma terminlar, komponent, struktura, sifat, sifatdosh, harakat nomi, son, ot so'z turkumlari, tushuncha.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarish bevosita lug'at boyligimizda o'z aksini qoldirmoqda. Globallashuv jarayoni yutimizda mavjud har sohaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bugungi kunda telekommunikatsiya vositalari jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan vositalardan biridir. Har bir inson har kuni bu vositalarning bitta tarmog'idan, albatta, foydalanadi: telefon aloqasi, radioaloqa, televideniya va boshqalar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. O'zbek tili terminlar sistemasida sintaktik usulda termin hosil qilish keng ommalashgan. Birikma terminlar yakka holdagi terminlarga nisbatan keng qo'llaniladi. Birikma terminlarning komponentlari har bir soha terminologik sistemasida turlicha miqdorni hosil qiladi.

N.Mahmudova Telefoniya sohasiga oid terminlarni tadqiq qilish jarayonida sohaga oid birikma terminlarni asosan uch usul yordamida hosil qilinishi hamda ularni komponentlari miqdoridan sakkiz guruhga ajratgan holda tadqiq etadi. Ular terminlarning komponent miqdori ko'paygani sari termin tushunchasi mavhumlikdan ancha yiroqlashib borishini ta'kidlab o'tadi.[1]

Z.Urunova ham Defektologiya sohasiga tegishli terminlarni struktur jihatdan turlarga ajratar ekan, birikma terminlarga alohida to'xtalib o'tadi va o'zbek tili defektologiya sohasiga oid birikma terminlarni hosil qilinish usullarini o'ganib, komponentlari miqdori jihatidan olti guruhga bo'lib tadqiq etadi. [2]

O'zbek tili radioaloqa sohasida birikma terminlar miqdor jihatdan ko'p. Ushbu terminlar barcha terminologik tizimlarda o'zining mustahkam o'rniga ega. Birikma



terminlar sintaktik usulda ikki va undan ortiq soʻz shakllarini oʻzaro bogʻlash yoʻli orqali ham hosil qilinadi. Masalan:

- 1) Oʻz til birliklarini oʻzaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *tayyor boʻlmaslik vaqti, kirish kuchaytirgichi, asosiy yaproq, guruhli kechiktirish, tebranishlarning soʻnishi, yer toʻlqini, eltuvchi quvvat, beixtiyoriy nurlanish, oʻrtacha quvvat, ikkilangan navbat, santimentrli toʻlqinlar oʻtkazish qobiliyati, fazoda tarqalish, toʻlqinlarning tarqalishi, tarqoq qabul* va shu kabi terminlar;
- 2) Oʻz til birliklari va oʻzga til birliklarini oʻzaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *polosa kengligi, oraliq liniya, oxirgi stansiya, signalning kuchsizlanishi, asosiy polosa, koʻtarilgan refraksiya, qutblantiruvchi selektor, oddiy modulatsiya, radiochastota shovqini, joy relyefi, qoʻshni kanal, pasaytirilgan refraksiya, parabolik qaytargich, antenna qaytargichi, dialektrik oʻtkazuvchanlik, qabul yoʻq zona* va sh.k.
- 3) Oʻzga til birliklarini biriktirish orqali soha terminlari hosil qilinadi: *topografik karta, radiorele liniyasi, standart refraksiya, regenerativ retranslyator, pereskopiv antennalar, rezerv stvol, trassa profile, magistral radiorele liniya, kritik refraksiya, zona radiorele liniyasi, analog signal, adaptiv modulatsiya, aktiv filtr, amplituda detektori, antenna polotnosi* kabi terminlar.

Radioaloqa sohasiga oid birikma terminlar juft, takroriy, qisqartma soʻzlar ishtirokida ham hosil qilingan. Bunday terminlarning modeli quyidagicha:

1. **[juft soʻz+leksema] modelidagi terminlar:** *punkt-zona aloqasi, antenna –fider qurilmasi, koʻchki oraliq diode, antenna-fider trakti, azimutal-masofa oʻlchagich radiomayogʻi, ekivalent izotrop-nurlanuvchi quvvat, kiritish-chiqarish tizimi, uzatilayotgan axborotni kiritish-chiqarish kabi.*
2. **[takroriy soʻz+leksema] modelidagi terminlar:** *buzilishning ketma-ket toʻplanishi, toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrinish masofasi, troposferadagi qavat-qavat, bir jinsli toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrinish doirasidagi tarqalish, galma-gal ulanish kabi.*
3. **[qisqartma soʻz+leksema] modelidagi terminlar:** *RRL aloqasi, VQT diapazoni, RPA oʻkazgich polosasi, AIM spektr i, RGI rezonansli chastota oʻlchagich, GPS/LONACC qabul qilgich, JPCh diapazoni* va shu kabi terminlar.

Oʻzbek tili radioaloqa sohasidagi terminlarning birikish komponentlari jihatidan eng koʻp uchraydigan turlari: **ikki, uch** hamda **toʻrt** komponentli terminlar ekanligi tahlilimiz jarayonida maʼlum boʻldi. Besh va undan ortiq komponentlarning birikuvidan voqealangan terminlar oʻzining terminlik funksiyasidan chetlashib, uning izohi va tavsifini ifodalayotgandek, nazarimizda. Terminning mavhumligiga jiddiy putur yetadi va soha egalariga, isteʼmolchilarga ham nutqiy qiyinchilikni



yuzaga keltiradi hamda nutqiy notejamlik holatlarini kengaytiradi. Terminlarni tahlil etish jarayonimizda sohada to‘qqiz va o‘n komponentli terminlarning mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Bundan tashqari, yuqoridagi misollardan ma‘lum bo‘ldiki, ko‘p komponentli terminlarning aksari gibrid so‘zlar hisobiga kengaygan. Ushbu terminlarni talaffuz qilishning o‘zi sohadan bexabar kishilar uchun yotdir. Gibrid terminlardan hosil qilingan ko‘p komponentli terminlarning nafaqat talaffuz, balki yodda saqlab qolish jarayoni ham bir muncha harakatni talab qiladi. Biz ushbu jarayonga ijobiy baho berishdan yiroqdamiz, terminning tushunchasiga putur yetkazmagan holatlarda ularni qisqartirib iste‘molda qo‘llanilishi tarafdorimiz. Chunki nutqiy tejamkorlikni hisobga olgan soha egalari ham, iste‘molchi shaxslar ham terminlarning qisqartirilishidan manfaatdor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudova N. O‘zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha falsafa d-ri, dis.... — Qo‘qon-2022.
2. Urunova Z. O‘zbek tilida defektologiya terminlari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa d-ri. diss. avtoref. —Toshkent, 2021.
3. Shirinova Y.O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi. Filol. fan.bo‘yicha falsafa d-ri. —Toshkent-2020.
4. Valiyev T. Avtoyo‘lsozlik terminlarining shakily strukturasiga ko‘ra turlari.— Samarqand-2016.
5. A.N.Aripov. raqamli radiorele uzatish tizimlari.—Toshkent -2015.
6. Radioto‘lqinlarining tarqalishi va antenna-fider qurilmalariga oid atamalarning ruscha -o‘zbekcha izohli lug‘ati.—Toshkent-2016.
7. Radiorele tizimiga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati.—Toshkent-2013.
8. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari:darslik. —Toshkent-2008.
9. Radiochastota spektri va radioelektron vositalar bo‘yicha o‘zbekcha-ruscha izohli lug‘at.
10. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug ‘ati.—Toshkent-2010.

